

Nuh ibn Nasr



Nuh ibn Nasr

Amiri Hamid, Abu Muhammad

(?- Buxoro – 954)

(943-954)

Somoniylar davlati amiri, amir **Nasr II ibn Ahmad**ning o'g'li. Otasi 30 yil hukmronlik qilgach, tiriklik paytida taxtni unga topshirgan (943 yil 10-aprel). Buxoro qozisi, fiqh ilmining bilimdoni **Abulfazl Marvaziy** (946 yil vafot etgan) uning vaziri bo'lgan. Nuh ibn Nasr mamlakatda keng yoyilgan qarmatiylar harakatini bartaraf etish choralarini ko'rgan. Movarounnahrda bu harakat rahbari **Muhammad ibn Ahmad Narshabiyni** Buxoroda dorga ostirdi. Biroq Somoniylar davlatining moliyaviy ahvoli og'irlashganligi uchun u soliq va turli turmushlarni ko'paytirishga majbur bo'lgan. Mamlakatda isyon va g'alayonlar kuchaygan. Narshaxiyning yozishicha, hatto uning amakisi **Abu Ishoq Ibrohim ibn Ahmad** Iroqdan kelib, Nishopur amiri **Abu Ali Sag'oniy** yordamida Buxoro taxtini egallab olgan (947). Oradan ko'p o'tmay Nuh ibn Nasr Samarqanddan qaytib, taxtni qaytarib olgach, markaziy hokimiyatga qarshi isyon ko'targan qarindosh-urug'larini jazolagan, Marvdagi isyonlarni ham bostirgan. Ammo u **Abu Alini** avval Chag'oniyon, so'ngra Xurosonga hokim qilib (952) tayinlashga majbur bo'lgan. Somoniylar davlati inqirozini to'xtatishga harakat qilgan. **Narshaxiy** o'zining "*Buxoro tarixi*" asari (943-944)ni unga bag'ishlagan. Og'ir kasallikdan so'ng Buxoroda vafot etgan.

2023-10-29 20:32:45